XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 6-fevral VII-5-10-14-0-K/25 Toshkent shahri

Yunusobod tumani “Obod” mahallasi hududida joylashgan nomi takror bo‘lgan ko‘chani qayta nomlash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalari, “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida” 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qaroriga asosan xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Toshkent shahar komissiyasining 2024-yil 31-oktabrdagi 9-son majlis bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yunusobod tumani “Obod” mahallasi hududida joylashgan nomi takror bo‘lgan ko‘chani qayta nomlash bo‘yicha berilgan taklif ilovadagi ro‘yxatga muvofiq tasdiqlansin.

3. Toshkent shahar hokimining o‘rinbosarlari (D.Raximova, A.Xen), Yunusobod tumani hokimligi (B.Abduvaliyev) qayta nomlanayotgan aholi punktining tarkibiy qismi (berk ko‘cha) to‘g‘risida mahalliy aholi o‘rtasida tegishli tushuntirish ishlarini olib borsin.

4. Toshkent shahar hokimining o‘rinbosarlari (D.Raximova, A.Xen), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Toshkent shahar boshqarmasi (F.Mahmudxo‘jayev), Toshkent shahar Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov), Toshkent shahar Statistika boshqarmasi (L.Mirsoatov) mazkur qarorga asosan tegishli hujjatlarga o‘rnatilgan tartibda o‘zgartirishlar kiritsin hamda bu borada zarur choralarni ko‘rsin.

5. Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi (A.Yunusov) ikki oy muddatda:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi 1010-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom” talablari asosida qayta nomlanayotgan aholi punktining tarkibiy qismi (berk ko‘cha)da joylashgan

ko‘chmas mulk obyektlarining manzillarini belgilash, o‘zgartirish va me’yorlashtirish ishlarini amalga oshirsin;

manzil o‘zgartirilganligi haqida o‘rnatilgan tartibda manfaatdor shaxslarni xabardor qilsin.

6. Toshkent shahar hokimligi Obodonlashtirish bosh boshqarmasi (A.Yunusov) uch oy muddat ichida qayta nomlanayotgan aholi punktining tarkibiy qismi (berk ko‘cha)da ko‘cha ko‘rsatkichlari (peshlavhalari)ni davlat tili talablariga mos ravishda belgilangan tartibda o‘rnatish va almashtirish ishlarini yakunlasin.

7. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati (G.Kasimova)ga mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.toshkent.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi E.Tulyakov hamda Toshkent shahar hokimining o‘rinbosarlari D.Raximova va A.Xen zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



KALANOV RUSTAM ABDUXAKIMOVICH

Xalq deputatlari Toshkent shahri Kengashining
2025-yil 6-fevraldagi
VII-5-10-14-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Yunusobod tumani “Obod” mahallasi hududida joylashgan nomi takror bo‘lgan ko‘chani qayta nomlash bo‘yicha berilgan taklif ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi	Geografik obyektning shartli xaritada joylashuvi
1.	berk ko‘cha	Obod mahallasi	Bo‘zsuvbo‘yi ko‘chasi	Yuqori Bo‘zsuv-1 berk ko‘cha	Yuqori Bo‘zsuv ko‘chasidan boshlanuvchi